

DINNING SIYOSAT BILAN ARALASHUVI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**Yusupova Sabina Ulug'bek qizi****Farg'ona davlat universiteti****Tarix fakulteti yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17405462>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada din va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixiy ildizlari hamda zamonaviy ko'rinishlari keng tahlil qilingan. Ayniqsa, diniy qadriyatlarining siyosiy jarayonlarda vosita sifatida ishlatilishi, buning jamiyat barqarorligiga, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikka ta'siri yoritiladi. Dinning siyosat bilan aralashuvi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar – ekstremizm, diniy radikalizm, ijtimoiy ziddiyatlar hamda din nomidan siyosiy manipulyatsiya kabi holatlar ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Shu bilan birga, maqolada din va siyosat o'rtasida sog'lom muvozanatni saqlash, diniy tashkilotlarning siyosatdan mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, diniy erkinlik va dunyoviylik tamoyillarini mustahkamlash zarurligi asoslab beriladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv sharoitida diniy g'oyalarning siyosiy maydonga tortilishi ko'plab mamlakatlarda ijtimoiy beqarorlikka sabab bo'lmoqda. Shu bois, maqola zamonaviy jamiyatda dinning asl ma'naviy mohiyatini saqlagan holda, uni siyosiy manfaatlardan himoya qilish yo'llarini ko'rsatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: din, siyosat, dunyoviylik, bag'rikenglik, ekstremizm, radikalizm, ijtimoiy barqarorlik, vijdon erkinligi.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the historical roots and contemporary manifestations of the relationship between religion and politics. It examines how religious values are often used as tools in political processes and how this affects social stability, interethnic harmony, and tolerance. The negative consequences of intertwining religion with politics—such as extremism, religious radicalism, social conflicts, and political manipulation in the name of religion—are discussed based on scholarly sources. Furthermore, the article emphasizes the importance of maintaining a healthy balance between religion and politics, ensuring the independence of religious institutions from political influence, and strengthening the principles of religious freedom and secularism.

The relevance of this research lies in the fact that in today's globalized world, the involvement of religious ideas in political affairs has led to social instability in many countries. Therefore, the article aims to explore ways to preserve the true spiritual essence of religion while protecting it from being exploited for political interests.

Keywords: religion, politics, secularism, tolerance, extremism, radicalism, social stability, freedom of conscience.

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ исторических корней и современных проявлений взаимоотношений между религией и политикой. Рассматривается, как религиозные ценности нередко используются в политических процессах в качестве инструмента и как это влияет на социальную стабильность, межнациональное согласие и толерантность. На основе научных источников исследуются негативные последствия смешения религии с политикой — такие как

экстремизм, религиозный радикализм, социальные конфликты и политические манипуляции под прикрытием религиозных лозунгов.

Кроме того, в статье подчеркивается важность сохранения здорового баланса между религией и политикой, обеспечения независимости религиозных институтов от политического влияния, а также укрепления принципов свободы совести и светскости государства.

Актуальность данного исследования заключается в том, что в условиях глобализации вовлечение религиозных идей в политическую сферу во многих странах приводит к социальной нестабильности. В связи с этим статья направлена на поиск путей сохранения истинной духовной сущности религии и защиты её от использования в политических целях.

Ключевые слова: религия, политика, светскость, толерантность, экстремизм, радикализм, социальная стабильность, свобода совести.

Dinning siyosat bilan aralashuvi — bu diniy g'oyalar, ta'limotlar yoki tashkilotlarning davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Ya'ni, siyosiy qarorlarni qabul qilishda diniy manfaatlarning ustuvor bo'lishi yoki din nomidan siyosiy harakatlar yuritilishi shu tushuncha doirasiga kiradi.

Boshqacha aytganda, dinning siyosat bilan aralashuvi — bu ikki tizimning tabiiy chegarasining buzilishi demakdir. Din asosan ma'naviy va axloqiy sohani tarbiyalaydi, insonni ichki tozalik, adolat va insoniylikka chorlaydi. Siyosat esa davlatni boshqarish, qonunlarni ijro etish va ijtimoiy tartibni ta'minlashga qaratilgan. Agar din siyosatga haddan ziyod aralashsa, diniy ta'limotlar siyosiy vositaga aylanib, uning ruhiy pokligiga putur yetkazadi. Shu bilan birga, siyosat ham dinning ta'siri ostida bo'lsa, qarorlar ilmiy yoki adolatli mezonga emas, balki diniy qarashlarga asoslangan holda qabul qilinishi mumkin. Shu sababli ko'pchilik olimlar va huquqshunoslar dunyoviylik tamoyilini muhim deb biladilar. Bu tamoyilga ko'ra, davlat va din ishlari bir-biridan ajratilgan bo'lishi lozim. Bu nafaqat dinni siyosiy ta'sirdan himoya qiladi, balki har bir fuqaroga vijdon erkinligini kafolatlaydi.

Bugungi globallashuv va axborot asrida din va siyosat o'rtasidagi munosabat yanada murakkablashmoqda. Dunyo mamlakatlarida diniy qadriyatlar nafaqat insonlarning shaxsiy e'tiqodi sifatida, balki siyosiy maydonda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayrim siyosatchilar diniy tuyg'ulardan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga urinadi, diniy shiorlar orqali xalq orasida obro' qozonishga harakat qiladi. Bunday holatlarda din siyosiy vositaga aylanadi va bu uning asl ma'naviy mohiyatiga zarar yetkazadi. Natijada jamiyatda diniy bag'rikenglik susayadi, turli e'tiqod vakillari o'rtasida ishonchsizlik paydo bo'ladi. Ayrim hollarda esa bu jarayon 1.ekstremistik g'oyalarning kuchayishiga, diniy ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim mamlakatlarda din davlatdan to'liq ajratilgan bo'lsa-da, siyosiy jarayonlarda diniy qadriyatlarining ijtimoiy ta'siri saqlanib qolgan. Masalan, qonunlarda axloqiy me'yorlar yoki insonparvarlik tamoyillarining mavjudligi diniy asoslardan oziqlangan. Demak, zamonaviy dunyoda din va siyosat o'rtasidagi aloqani butunlay uzish emas, balki ularning o'zaro muvozanatini saqlash muhimdir. Din siyosatdan mustaqil bo'lishi kerak, biroq uning axloqiy va ma'naviy qadriyatlari siyosatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Faqat bu ta'sir majburlov yoki suiste'mol shaklida emas, balki jamiyat manfaatlarini va adolat tamoyillariga asoslangan bo'lishi zarur.

Dinning siyosat bilan haddan ziyod aralashuvi jamiyatda bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- Diniy ziddiyat va ijtimoiy nizolar kuchayishi

Siyosiy maqsadlarda dinni ishlatish turli e'tiqod vakillari o'rtasida ishonchsizlik va nizolarni kuchaytiradi. Natijada jamiyatda bag'rikenglik kamayadi va millatlararo totuvlik xavf ostiga tushadi.

1. Ekstremistik – bu qonuniy, ijtimoiy yoki axloqiy me'yorlardan tashqariga chiqadigan, haddan tashqari radikal g'oya, qarash yoki harakat bilan bog'liq bo'lgan degan ma'noni bildiradi.

- Ekstremizm va radikalizmning rivojlanishi

Din nomidan siyosiy manipulyatsiyalar radikal g'oyalarning tarqalishiga, yoshlarni ekstremistik oqimlarga jalb qilishga sabab bo'ladi. Bu esa milliy va xalqaro barqarorlikka tahdid soladi.

- Siyosiy qarorlarning adolatsiz va sub'ektiv bo'lishi

Agar siyosat diniy qarashlar ostida amalga oshirilsa, qonunlar va qarorlar ilmiy asosga emas, balki diniy talqinlarga tayanadi. Bu fuqarolarning huquqlari buzilishiga va adolatsizlikka olib keladi.

- Dinning asl ma'naviy mohiyatining buzilishi

Siyosiy manfaatlar uchun dinni ishlatish uning ruhiy pokligi va axloqiy qadriyatlarini yo'qotadi. Dinning tarbiyaviy va ma'naviy roli kamayadi, u manipulyativ vositaga aylanadi.

- Fuqarolarning vijdon erkinligiga tahdid

Siyosat va din chegarasi buzilganda, ayrim e'tiqod vakillarining vijdon erkinligi cheklanadi, ular o'z diniy qarashlarini erkin ifoda eta olmaslik xavfi bilan yuzlashadi.

Dinning siyosat bilan aralashuvining salbiy oqibatlarini kamaytirish va ularning sog'lom munosabatini ta'minlash uchun bir nechta asosiy yo'llar mavjud:

1. Din va davlat ishlarini aniq ajratish (dunyoviylik tamoyili)

Davlat va diniy institutlarning mustaqilligini ta'minlash, qarorlar qabul qilishda diniy ta'sirdan xoli bo'lishini kafolatlaydi. Bu tamoyil fuqarolarning vijdon erkinligini himoya qiladi va siyosiy manipulyatsiyalarning oldini oladi.

2. Diniy ta'limotlarni siyosatdan xoli shaklda o'qitish

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida din asosiy ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatishi, siyosiy maqsadlarda talqin qilinmasligi kerak.

3. Ommaviy axborot vositalarida diniy targ'ibotlarni nazorat qilish Media va internet orqali noto'g'ri diniy ma'lumotlar tarqalishining oldini olish, fuqarolarni to'g'ri diniy ma'lumotlar bilan ta'minlash muhimdir.

4. Diniy tashkilotlarning siyosiy partiyalarga aralashuvining oldini olish

Diniy rahbarlar va tashkilotlar siyosiy jarayonlarga bevosita aralashmasligi, faqat ma'naviy va ijtimoiy sohalarda faol bo'lishi kerak.

5. Diniy bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini mustahkamlash

Jamiyatda turli e'tiqod vakillari o'rtasida hurmat va bag'rikenglikni targ'ib qilish, diniy nizolar va ziddiyatlarning oldini oladi.

6. Davlat siyosatiga ma'naviy va axloqiy prinsiplarni integratsiya qilish

Din siyosatdan mustaqil bo'lsa-da, uning axloqiy qadriyatlari va insonparvarlik tamoyillari siyosiy qarorlar qabul qilishda ijobiy asos bo'lishi mumkin, ammo bu majburlovchi emas, faqat tarbiyaviy yo'nalish sifatida bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, dinning siyosat bilan aralashuvi zamonaviy dunyododa dolzarb masala bo'lmoqda. Ammo din va siyosat bir birining faoliyatiga haddan tashqari aralashishi jiddiy muammolarga sabab bo'ladi. Ammo, ikki yo'nalish ham bir- birini inkor etmagan holatda faoliyat yuritishi nur ustiga, a'lo nur. Shu bilan birga, O'zbekiston konstitutsiyasining 35-moddasidagi vijdon erkinligi normasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega". Ya'ni O'zbekiston konstitutsiyasiga binoan hech bir din majburan singdirilmaydi. Diniy tashkilotlar davlat tashkilotlaridan alohida qilib ajratilgan. Bu shuni anglatadiki, hech bir diniy tashkilot davlat tashkilotlarining faoliyatiga aralashishi mumkin emas va davlat tashkilotlari ham huddi shunday diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralasha olmaydi. Bu esa jamiyatda vijdon erkinligini kafolatini yana ham mustahkamlaydi. Shuningdek, siyosiy jarayonlarda shaffoflikka rahna soluvchi qonuniy yoki g'ayri -qonunini kuchlardan ozod qiladi. Bu degani O'zbekiston barcha dinlarni inkor qiladi yoki taqiqlaydi degani emas. Shunchaki din va siyosat o'rtasidagi muvozanatni, tarozining ikki pallasida teng ushlab qoladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 4-moddasidagi normasida belgilab o'tilgan "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk yillari konstitutsiya ishlab chiqish jarayonida, konstitutsiyani uch ming yillik tarixi va an'analarga asoslanib, Amir Temurning "Temur tuzuklari" asariga asoslanib yaratilgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, Diniy qarashlar bu yaxshi va poklikka yetaklaydi ammo diniy g'oyalarni noto'g'ri talqin qilib siyosatga zarar yetkazishga urinish bu diniy tasavvur emas bu dinni "niqob" qilish demakdir. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolar o'z urf-odat, an'alarini erkin amalga oshiradilar. Masalan, kelin va kuyov avval rasmiy nikohdan o'tadi keyin shar'iy. Masjidda, cherkovda ibodat qiladiganlar uchun ham cherkovlar va masjidlar qurib berilgan. Bu esa vijdon erkinligining yaqqol namoyondasi!

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023
3. Nurmatov A. "Siyosatshunoslik"
4. Abdug'afforov R. "Din va siyosat munosabati"
5. Maxsudov SH. "Dinshunoslik asoslari"